
“Confluence of India and Central Asia through the Ages” monografiyasi chop etildi

2025-yil yanvar oyida Primus Books nashriyoti tomonidan Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi munosabatlarga oid “Confluence of India and Central Asia through the Ages” monografiyasi chop etildi. (Syed Axtar Husain tomonidan tahrirlangan. Hindiston xalqaro markazi. Dehli. Primus Books. 2025. Pp.358).



E’tiborli jihati shundaki, mazkur monografiya mualliflari tarkibida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi markazi bo‘lim boshlig‘i, professor Mirzohid Rahimov ham bor.

Jamoa monografiyasida Markaziy va Janubiy Osiyoning boy o‘tmishi va istiqbolli kelajagi haqida hikoya qiluvchi bo‘limlar mavjud. Ushbu monografiyasida olimlar mintaqalarning tarixiy aloqalari va madaniy boyligini tadqiq qiladilar.

Monografiyasining bir qator boblari Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi zamonaviy hamkorlik, ko‘p tomonlama munosabatlar, muammolar, hamkorlikning holati va istiqbollariga bag‘ishlangan.